

O'QITISH PRINSIPLARI O'QITISH TAMOYILLARI

Nishonboyeva Shoxista Anvarjon qizi

Kayumova Odina Xamraboy qizi

Abduraxmonova Mahliyo Iqboljon qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'qitishning prinsip va tamoyillari hamda ularning ta'limdagi ahamiyati haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *O'quvchi, prinsip, rivojlanish, ta'lim, tamoyil, o'quv jarayoni, didaktika, qonuniyat.*

O'qituvchi faoliyatining muvaffaqiyati avvalo u didaktik prinsip (qonuniyat) larni qanchalik to'g'ri amalga oshirishiga bog'liq. O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2017 yil 7-fevral kungi farmoni bilan 2017–2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini tasdiqladi. Bu haqda Strategiya loyihasi dolzarb hamda aholi va tadbirkorlarni tashvishga solayotgan masalalarni kompleks o'rganish, qonunchilik, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va xorijiy tajribani tahlil qilish yakunlari bo'yicha ishlab chiqildi. Hujjat internetda e'lon qilinib, ekspertlar va jamoatchilikning keng muhokamasidan o'tdi. Ijtimoiy sohalarining rivojlantirishida milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlarining ustuvorligi asosida ta'limning barcha darajalari va bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va ahloqiy fazilatlarini rivojlantirishga hamda ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, jamoat boshqaruvi shakllarini rivojlantirish, ta'lim muassasalarini mintaqalashtirishga e'tabor qaratilgan.

Ta'limning mazmuni hayot, hozirgi zamon fani bilan bog'langan bo'lganligi uchun ham, vazifalarda mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish muammolari, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, kompyuterlash kabilar asosida intensivlash o'z aksini topishi kerak.

Har bir o'qituvchi shuni anglab yetishi muhimki, o'quv jarayonini samarali ko'rish - bu, ishda o'zini oqlagan pedagogik qonuniyatlar, qoidalar, didaktik qoidalarni hozirgi zamon sharoitidagi yangi masalalarni xal qilishda ijodiy foydalangan holda, ulardan butunlay va o'zaro aloqada foydalanish demakdir.

O'qitishning muqobil tomonlarini tanlash uchun butun qonuniyatlar birligini va didaktik qoidalarini e'tiborga olish zarur.

O'qitish qonuniyatlaridan uni samarali tashkil qilishga nisbatan muayyan muhim talablar kelib chiqadiki, buni o'qitish qoidalari deb ataladi. O'qitish qoidalarini bilish o'qitishning zarur usullarini yanada ishonchliroq tanlashga imkon beradi.

Ta'lim qoidalari - o'qituvchining faoliyatini va o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, tegishli ko'nikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonun va yo'l - yuriqlarini o'z ichiga oladi. SHu bilan bir vaqtda ta'lim qoidalari har ikkala faoliyatni, ya'ni o'qituvchi va o'quvchi tomonidan o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatini beradigan bir qancha talablarni ham umumlashtirib beradi.

Ta'lim o'qituvchining faoliyati va o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarni o'zlashtirilishi, tegishli ko'nikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonuni va yo'l-yo'riqlarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim tamoyillari deb, umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonlarining yo'nalishi, o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirishlari, bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonun qoidalarining yig'indisiga aytiladi.

Ta'lim prinsiplari jamiyatimizning maktab oldiga qo'ygan talablaridan kelib chiqadi. Shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, o'qitish prinsiplarini amalda qo'llash bilan chambarchas bog'langan. O'qitish prinsipi nima? "Prinsip" lotincha so'z bo'lib, asos, qoida, talab singari ma'nolarni ifodalaydi. "O'qitish prinsipi" deganda dars samaradorligini ta'minlash, qoidalar tushuniladi. O'qituvchi ta'lim ishini tashkil etar ekan, ana shu qoida va talablardan kelib chiqadi va ular o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlagan holda amalda tadbqiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erishadi. Ta'lim jarayonida darsni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishda o'quvchi va o'qituvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar, didaktik qoidalar ta'lim prinsiplaridir. Mazkur prinsiplar har bir o'quv predmetida o'ziga xos tatbiq etiladi

O'qitish prinsiplari ta'limning eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi.

Ta'lim prinsiplari o'quv-tarbiya jarayoniga qo'yiladigan ijtimoiy talablar

Ta'limni tashkil etish va boshqarishda rioya qilinadigan qoidalar sifatida amal qiladi. Ta'lim prinsiplari haqida tasavvurlar ikki xil yo'l bilan izohlanadi:

1) tasvir shaklida. Masalan, ilmiylik prinsipi fan va o'quv predmeti o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Bu yerda ilmiylik prinsipi tasvir orqali bayon qilingan;

2) qoida shaklida. Masalan, ta'limda oddiydan murakkabga qarab boriladi.

Bu jumlada tushunarliklik prinsipi qoidaga solingan, ya'ni normallashtirilgan. Ta'lim prinsiplari qoida shaklini ollevergan sari, ulardan amaliyotda foydalanish imkoniyatlari ham kengayaveradi.

Mutaxassislar ta'lim prinsiplari xususiyatlarini, asosan, o'qituvchi faoliyatiga nisbatan izohlashadi. Shu sababli ko'pchilik didaktik qo'llanmalarda "o'qitish prinsiplari" iborasi ishlatilgan. Ta'lim prinsiplari talim jarayonining ikkala sub'eaktiga- ham o'qituvchi, ham o'quvchiga daxldor. SHunga ko'ra biz ularni ta'lim prinsiplari deb nomladik. Ta'limni tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar, qoidalar ta'lim prinsipi deb aytiladi.

O'qitish tamoyili nima? —O'qitish tamoyil deganda dars samaradorligini ta'minlash, qoidalar tushuniladi. O'qituvchi ta'lim ishini tashkil etar ekan, ana shu qoida va talablardan kelib chiqadi va ular o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlagan holda amalda tadbqiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erishadi. Ta'lim jarayonida darsni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishda o'quvchi va o'qituvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar, didaktik qoidalar ta'lim prinsiplaridir. Mazkur prinsiplar har bir o'quv predmetida o'ziga xos tatbiq etiladi. Bu tamoyillar umumdidaktik tamoyillardan o'zgacha bo'lib, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi o'quv mehnatining yo'nalishlarini belgilab beradi.

Maktablarimizda ta'limning ilmiy bo'lishi prinsipi ta'lim jarayonida o'quvchilarning tabiat, jamiyat va kishi tafakkuri taraqqiyoti haqidagi qonun va qoidalarni dialektik materialistik asosda egallab olishlarini, atrofni o'rab olgan ob'yektiv borliqdagi predmet, narsa, hodisa va voqealarning bir-biriga bog'liqligi, hamisha harakatda va rivojlanishda ekanligini ilmiy asoslarini anglab olishlarini, fakt va hodisalarni mustaqil tahlil qilish va xulosalar chiqarish, shuningdek, ularga o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarning turmushda bilish ko'nikma va malakalarni hosil qilish talabalarning o'z ichiga oladi.

Ta'limning ilmiy bo'lishi prinsipi ta'lim jarayonida o'quvchilarning hozirgi fan va texnika taraqqiyot darajasiga muvofiq keladigan ilmiy bilimlar bilan qurollashtirishni hamda maktab ta'limi davomida yoshlarni ilmiy bilimlar bilan tanishtirib borishni ta'minlashga qaratilgan.

Didaktikaning ilmiylik prinsipi maktab ta'limining mazmunigagina aloqador bo'lib qolmay, o'qitish meto'dlariga ham aloqadordir.

U maktab ta'limi jarayonida fan-texnika yutuqlaridan foydala olishga qaratilgan o'qitish meto'dlarini ham takomillashtirishni talab qiladi.

Shuningdek, o'quvchilarning umumiy tayyorgarligi, saviyasi va yosh xususiyatlariga mos keladigan eng sodda shakldagi ilmiy tadqiqot meto'dlari bilan tanishtirishni ham talab qiladi. Ayniqsa o'quvchilarni, atrofni, narsa, voqea va hodisalarni mustaqil suratda kuzatish, eksperiment o'tkazish, dastlabki ilmiy tadqiqot meto'dlari bilan tanishtirishni talab qiladi.

Ta'limning tarbiyaviyligi prinsipi yosh avlodni har tomonlama kamolotga etkazishni nazarda tutadi. Ona tilini o'rganish jarayonida o'quvchilarga milliy g'oya, ona Vatanga sadoqat, tabiatga muhabbat, kishilarga hurmat, ehtirom, yaxshilik, adolatli bo'lish kabi ijobiy xususiyatlar singdiriladi. Ona tili darslarida yoshlarni tarbiyalash yo'llari ko'p:

- har bir mavzu va bo'limning ta'limiy imkoniyatlarini to'la ishga solish;
- tanlangan matnlarning o'rganilayotgan til hodisasiga va sharqona tarbiya yunalishlariga to'la moslashtirish;
- darslikda berilayotgan ma'rifiy matnlar ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishini ta'minlash shular jumlasidandir.

Prinsiplarni ta'lim jarayoni qonuniyatlaridan kelib chiqib belgilash, garchand bu ularga yangicha yondashish bo'lsa-da, u mohiyat bilan zaruriyatgi tenglashtirishga hatto almashtirishga olib keladi. Zotan qonuniyatlar kishiga, uning ongiga bog'liq bo'lmagan holda mavjud. Boshqacha aytganda, ular narsaning o'zida, o'rganilayotgan jarayonining tarkibiga amal qiladi. Faning vazifasi shu qonuniyatlarni izlash, topish va izohlashdan iborat. Ta'lim prinsiplari, birinchi navbatda, amaliyotga, binobarin, zaruriyatga daxldor. Shu tufayli ular ta'limni tashkil etish, boshqarish va nazorat etish mezonlari sifatida amal qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Pedagogika professionalnogo obrazovaniya/ Pod red. V.A.Slastenina. - Moskva: Akademiya, - s. 37.

2. Pardayeva M.D. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturini yaratish: tanqiddan-tahlil, tajribadan-natija, sifatdan-taraqqiyot sari. "Umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirish:

mazmun, metodologiya, baholash va ta'lim muhiti" xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2020-y.

3. Олимов Т., Узокова Л.П., Шалимов Э. З., Рустамов Р. М., Ашурова С.Ю. "Махсус фанларни уқитиш методикаси». Тошкент, : "Фан" 2004 й.

4. Уи. К.Вабанский. Hozirgi zamon umumiy ta`lim maktabida, o`qitish metodlari. Toshkent. " O`qituvchi" 1990 yil.

5. М.Махмуртов. Maktabda muammoli ta`limni tashkil qilish. Toshkent. "O`qituvchi" 1981 yil